e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/xsh25421

TERMIN, TERMINOLOGIYA, TERMINOLEKSIKA VA TIBBIY TERMINOLOGIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY TALQINI

Ahmedova Aziza Mansurbek qizi
Qo‘qon universiteti Andijon filiali, o'qituvchi.
e-mail: Akhmedovaziza492@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0003-1904-4062

Annotatsiya.

Mazkur maqolada jahon va o‘zbek terminologiyasida “termin”, “nomen”, “terminologiya”, “terminoleksika”, “terminologik tizim”, “tibbiy termin”, “terminologik birikma”, “ko‘p komponentli termin” hamda “terminologik variant” tushunchalarining ilmiy talqinlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ushbu tushunchalarning terminshunoslik metatilida ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llanishi va bu holat sohaviy terminologiyalarni chog‘ishtirma tadqiq etishda uslubiy noaniqliklarga olib kelishi ko‘rsatib berilgan. Tushunchalarni tahlil qilish jarayonida ularni farqlash mezonlari sifatida nomlanuvchi obyektning tabiati, tavsif birligining xarakteri va ifodaviy tuzilishi hamda variativligi belgilangan. Natijada oftalmologik terminologiya va oftalmologiya terminoleksikasining ishchi ta’riflari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: termin, nomen, terminologiya, terminoleksika, terminologik tizim, tibbiy terminologiya, terminologik birikma, ko‘p komponentli termin, terminologik variant, oftalmologiya.

НАУЧНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЙ «ТЕРМИН», «ТЕРМИНОЛОГИЯ», «ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКАЯ ЛЕКСИКА» И «МЕДИЦИНСКАЯ ТЕРМИНОЛОГИЯ»

Ахмедова Азиза Мансурбек кизи
Андижанский филиал Кокандского университета, преподаватель.

Аннотация.

В статье проводится сравнительный анализ научных интерпретаций понятий «термин», «номен», «терминология», «терминологическая лексика», «терминологическая система», «медицинский термин», «терминологическое сочетание», «многокомпонентный термин» и «терминологический вариант» в мировой и узбекской терминологии. В ходе исследования установлено, что данные понятия в метаязыке терминоведения нередко употребляются как синонимы, что приводит к методологической неоднозначности при сопоставительном изучении отраслевых терминологий. В процессе анализа в качестве критериев разграничения данных понятий определены природа именуемого объекта, характер и структура единицы описания, а также её вариативность. В результате разработаны рабочие определения офтальмологической терминологии и терминологической лексики офтальмологии.

Ключевые слова: термин, номен, терминология, терминологическая лексика, терминологическая система, медицинская терминология, терминологическое сочетание, многокомпонентный термин, терминологический вариант, офтальмология.

SCIENTIFIC INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF TERM, TERMINOLOGY, TERMINOLOGICAL VOCABULARY, AND MEDICAL TERMINOLOGY

Ahmedova Aziza Mansurbek qizi
Andijan Branch of Kokand University, Lecturer.

Abstract.

This article provides a comparative analysis of the scientific interpretations of the concepts of “term,” “nomen,” “terminology,” “terminological vocabulary,” “terminological system,” “medical term,” “terminological combination,” “multi-component term,” and “terminological variant” in international and Uzbek terminology studies. The study demonstrates that these concepts are often used synonymously in the metalanguage of terminology studies, which may lead to methodological ambiguity in comparative research on specialized terminologies. The analysis identifies the nature of the designated object, the characteristics and structure of the descriptive unit, and its variability as the main criteria for distinguishing these concepts. As a result, working definitions of ophthalmological terminology and ophthalmological terminological vocabulary are proposed.

Keywords: term, nomen, terminology, terminological vocabulary, terminological

system, medical terminology, terminological combination, multi-component term, terminological variant, ophthalmology.

Kirish. Fan tilining shakllanganlik darajasi har qanday milliy tilning aqliy salohiyatini belgilovchi muhim ko‘rsatkichdir. Til ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq va jamiyat bilan hamnafas rivojlanadi [5, 8]. Ushbu bog‘liqlik eng yaqqol tarzda tilning maxsus leksika qatlamida, ya’ni terminlarda namoyon bo‘ladi. Chunki aynan terminlar muayyan sohadagi bilimning paydo bo‘lishi va shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ammo terminshunoslikning o‘z metatili, ya’ni fan foydalana oladigan tayanch tushunchalar tizimi bugungi kunga qadar aniq yagona talqinga ega emas. Ko‘pincha adabiyotlarda “termin”, “terminologiya”, “terminologik tizim”, “terminoleksika” kabi birliklar bir-birining o‘rnida qo‘llaniladi. Bu muammo, ayniqsa, tibbiyot terminologiyasi va uning tor tarmoqlari, ya’ni oftalmologik terminologiyani ikki tilda chog‘ishtirma o‘rganishda keskin namoyon bo‘ldi.

Jahon va o‘zbek terminologiyasida “termin”, “nomen”, “terminologiya”, “terminoleksika”, “terminologik tizim”, “tibbiy termin”, “terminologik birikma”, “ko‘p komponentli termin” tushunchalarining talqinlarini tahlil qilish hamda ular orasidagi farqlarni muayyan mezonlar asosida belgilash maqsad qilib olindi. Bundan kelib chiqqan holda, mazkur tushunchalarga berilgan asosiy ta’riflarni qiyosiy tahlil qilish, ularni farqlash mezonlarini ajratish va oftalmologiya materiali asosida illyustratsiyalash hamda oftalmologiya terminologiyasi va oftalmologik terminoleksika tushunchalarini va ularning ta’riflarini qayta ko‘rib chiqish asosiy maqsadlardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Terminshunoslik mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida XX asrning 30-yillarida shakllangan bo‘lib, uning nazariy poydevori D. S. Lotte, G. O. Vinokur va E. Vyuster ishlari bilan qo‘yilgan. Keyingi bosqichda rus terminshunosligida A. A. Reformatskiy, V. P. Danilenko, A. V. Superanskaya, V. M. Leychik, S. V. Grinev-Grinevich kabi olimlarning tadqiqotlarida terminning lisoniy tabiati, terminologiya va nomenklatura munosabati, terminosistemaning tuzilishi masalalari keng yoritiladi [12; 13; 14].

G‘arb terminshunosligida esa Vena maktabi an’anasi bo‘yicha Felber o‘zining “Terminologiya qo‘llanmasi” (Terminology Manual) kitobida “termin”ni muayyan sohada ta’riflangan tushunchani ifodalovchi shartli belgi deb ta’riflagan [3, 25]. Terminning monosemikligi esa ideal tamoyil sifatida ilgari suriladi [3, 182]. Demak, zamonaviy terminologiyada termin ham tushunchalar tizimi, hamda real nutqiy qo‘llanish nuqtayi nazaridan o‘rganilishni talab qiladi. Ushbu tamoyilni sotsiokognitiv terminshunoslik vakili R. Temmerman tanqid qilishi bo‘yicha prototipik tuzilishga ega toifalar uchun univokallik maqsad bo‘la olmaydi, chunki polisemiya, sinonimiya va ko‘chma ma’noli qo‘llanish ularning nomlanish tarixining tarkibiy qismidir [8, 58]. Ushbu qarash tibbiyot terminologiyasiga o‘xshash, tarixan uzoq muddat mobaynida shakllangan sohalar uchun metodologik jihatdan muhim hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida esa terminologiya masalalari S. Ibrohimov, A. Hojiyev, E. Begmatov, A. Madvaliyev, H. Dadaboyev kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. H. Dadaboyevning “O‘zbek terminologiyasi” qo‘llanmasida jahon terminshunosligining asosiy g‘oyalari umumlashtirilib, termin “ilm-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniq va to‘laligicha aks ettiruvchi” birlik sifatida sharhlangan va terminlarning ajratuvchi belgilari qatoriga “bir ma’noliligi, aniqligi, tizimliligi, kontekstdan xoliligi va emotsional jihatdan obyektivliligi” kiritiladi [2, 5].

Tibbiy terminologiya boshqa soha terminologiyalariga qaraganda eng qadimiy qatlamlardan biridir. Tibbiyot, biologiya va farmatsevtika sohalarida ko‘plab ishonchli manbalar dastlab lotin va yunon tillarida yozilgan. Keyinchalik esa lotin tili polyak tiliga, asosan, tashxis qo‘yish terminlarida almashtirila boshlagan. Bugungi kunga kelib, tibbiy terminlarning shakllanishida ingliz tili yetakchilik qilmoqda. Ammo shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, ingliz tilidagi tibbiy leksikaning qariyb 90 foizining kelib chiqishi yunon va lotin tillariga borib taqaladi [5, p. 41]. Bu sohada terminlarning aniqligi faqatgina ilmiy muloqot vositasi emas, balki tashxis qo‘yish, davolash usulini belgilash va bemor xavfsizligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Xususan, yurtimizda ham lotin tili va tibbiy terminologiya davlat va xususiy tibbiyot maskanlarida alohida fan sifatida o‘qitilib, talabalarda terminlarni to‘g‘ri tushunish va tarjima qilish malakasi shakllantirib kelinmoqda.

Oftalmologiya terminologiyasi tibbiy terminologiyaning o‘ziga xos tizimi hisoblanadi. Unda eponimlar, ya’ni olim va shifokorlarning nomi bilan ataluvchi terminlar ulushi ko‘proq. S. Yale, H. Tekiner va E. Yale olib borgan tadqiqotning natijasiga ko‘ra, umumiy tibbiy eponimlar 14 332 tani tashkil qilsa, ularning 8,8 foizi oftalmologiyaga oiddir [9, p. 2].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqorida sanab o‘tilgan ishlarda tushunchalar ko‘pincha kontekstga qarab erkin qo‘llaniladi va ular orasidagi chegarani aniq belgilash qiyin. Ayniqsa, “terminologiya” va “terminoleksika”, shuningdek, “termin” va “nomen” juftliklarining farqlanishi o‘zbek tilshunosligida yetarlicha ishlab chiqilmagan. Quyida ushbu tushunchalar izchil mezonlar asosida farqlanadi.

Terminshunoslikda **termin**, avvalo, nominativ birlik sifatida qaraladi. U ma’lum bir tushunchani nomlaydi va shu bilan umumiste’mol so‘zdan farq qiladi. G. O. Vinokur terminni “har doim aniq va ravshan” deb talqin qiladi va terminlar sistemasining tili esa ongli ravishda shakllantiriladi [2, 4]. Vena maktabi an’anasiga muvofiq termin ta’riflangan tushunchaning shartli ifodachisi hisoblanadi [3, 1]. V. M. Leychik qarashida esa termin maxsus maqsadlar uchun xizmat qiluvchi tilning leksik birligi bo‘lib, u terminlik maqomiga faqat muayyan terminosistema doirasida ega bo‘ladi [13]. Termin va umumiste’mol so‘z o‘rtasidagi farqni oftalmologiya misolida quyidagicha ko‘rsatish mumkin. O‘zbek tilidagi ko‘z so‘zi umumiste’mol leksikasiga mansub bo‘lib, keng va noaniq denotativdir. Uning terminologik muqobillari esa aniq chegaralangan tushunchalarni yoki tor sohalarni nomlaydi, misol uchun, bulbus oculi – ko‘z olmasi (anatomik butunlik), orbita – ko‘z kosasi (suyak tuzilma), organum visus – ko‘rish a’zosi (funksional tizim). Demak, termin so‘zning shakliga emas, balki uning muayyan bilim sohasidagi ta’riflangan tushunchaga biriktirilganligiga bog‘liq.

Nomen (nomenklatura birligi) bir turdagi konkret predmet yoki namunaning nomidir. H. Dadaboyev

ISSN 3060-5059 (Online)

nomenklatura terminologiyaga nisbatan yangi kategoriya ekanini va “har qanday soha nomenklaturasi shu sohaga oid barcha tur nomlarini” qamrab olishini qayd etadi [2, 6]. Bundan tashqari, nomenlar va terminologiya o‘rtasidagi farqlardan biri — ular odatda terminologik lug‘atlarda qayd etilmaydi. Oftalmologiya materialida bu farq biroz boshqacharoq namoyon bo‘ladi. Masalan, glaukoma, katarakta, keratit kabi terminlar tushunchalarni nomlaydi. Goldmann applanatsion tonometri, Snellen jadvali kabilar nomenlar, chunki ular konkret asbob, jadval yoki dori namunasini nomlaydi. Eponimlar esa bu chegarada o‘rtada turadi, chunki Shlemm kanali anatomik tushunchani bildirgani uchun termin, lekin uning nomi inson nomi bilan, ya’ni shu birlikni nomlagan inson nomi bilan qo‘yilgani sababli eponim hisoblanadi. Quyidagi jadvalda termin va nomen farqlari umumlashtirilgan.

Mezon	**Termin**	**Nomen**
Nomlash obyekti	Ta’riflangan tushuncha	Kokret predmet, namuna
Referent tabiati	Umumlashgan, sinfiy	Yakka, individual
Tizimdagi o‘rni	Terminosistemaning a’zosi	Nomenklatura ro‘yxatining birligi
Lug‘atda qayd etilishi	Terminologik lug‘atlarda beriladi	Odatda berilmaydi
Oftalmologiyadan misol	Glaucoma, katarakta, keratit	Goldmann tonometry, Snellen jadvali.

Terminologiya atamasi ilmiy adabiyotda kamida uch ma’noda qo‘llaniladi. Birinchi ma’nosi terminlar haqidagi fan, ikkinchi ma’nosi muayyan sohaning terminlar majmui, uchinchidan, fan tili sifatidagi funksional turi, ya’ni an’anaviy fan tili deb izohlangan [2, 4]. Ushbu talqinlar bir-biriga zid emas: biri terminologiyani til quyi tizimi sifatida, ikkinchisi esa birliklar to‘plami sifatida qaraydi. Mazkur tadqiqotda terminologiya atamasi muayyan bilim sohasi tushunchalarini nomlovchi, ichki tartibga ega birliklar majmui ma’nosida qo‘llaniladi.

Terminologik tizim (terminosistema) va terminologiya o‘rtasidagi farq shakllanish xarakteriga asoslanadi. Terminologiya tabiiy yo‘l bilan uzoq davr mobaynida stixiyali tarzda to‘planishi mumkin, terminosistema esa tushunchalar tizimiga moslashtirilgan, ichki iyerarxiyaga ega tuzilmadir. H. Dadaboyev terminlarning iyerarxik birliklar sifatida terminologik sistemalarga kirishi va ular o‘z ma’nolariga faqat ayni sistema ichida erishishi mumkinligini ta’kidlab o‘tgan [2, 5]. Oftalmologiyada esa iyerarxiya “glaukoma (giperonim, ya’ni umumiy ma’noni bildiruvchi so‘z) – birlamchi glaukoma, ikkilamchi glaukoma – giponimlar, ya’ni giperonimga nisbatan torroq birliklar” tarzida namoyon bo‘ladi.

Terminoleksika tushunchasi rus tilshunosligidagi “terminologik leksika” birikmasining ixchamlashgan muqobil varianti sifatida shakllangan. U terminologiyadan tavsif birligining tabiati bilan farqlanadi. Terminologiya va terminosistema konseptual-tizimiy kategoriyalarga kiradi, ya’ni ular tushunchalar munosabatiga tayanadi. Terminoleksika esa leksik-inventar kategoriya bo‘lib, tilning lug‘at tarkibida real mavjud bo‘lgan, matn, korpus yoki lug‘atlarda qayd etilgan konkret birliklar majmuini bildiradi. Quyidagi jadvalda uchala tushuncha — “terminologiya, terminologik tizim, terminoleksika” qiyoslangan.

Mezon	**Terminologiya**	**Terminologik tizim**	**Terminoleksika**
Kategoriya turi	Konseptual-sohaviy	Konseptual-tizimiy	Leksik-inventar
Tavsif birligi	Soha terminlari majmui	Iyerarxik tuzilma	Konkret lisoniy birliklar
Shakllanish yo‘li	Tabiiy, stixiyali to‘planish	Ongli tartibga solish	Matn va lug‘atlarda qayd etilishi
Asosiy savol	Qaysi tushunchalar mavjud?	Ular qanday tartibda joylashgan?	Ular qanday birkliklar bilan nomlangan?
Tahlil usuli	Terminologik maydon tahlili	Giponimik-giperonimik tahlil	Miqdoriy va struktur tahlil

Tibbiy termin va tibbiy terminologiya inson organizmi tuzilishi, uning faoliyati, patologik holatlari, kasallikni davolash usullari, tashxis va dori vositalariga oid tushunchalarni nomlovchi maxsus leksik birlikdir. Uning eng muhim manbaviy xususiyatlaridan biri klassik tillarga, ya’ni ingliz tilining tibbiy leksikasining deyarli 90 foizi yunon yoki lotin tillariga borib taqaladi [6, 41]. O‘zbek tibbiy terminologiyasi ham bundan mustasno emas, terminlarning asosiy negizi yunon-lotin tillariga tayanadi va bu negiz o‘quv jarayonida maxsus fan sifatida o‘rgatiladi [1, 2]. Tibbiy terminologiya uchta katta bo‘limga: anatomik-gistologik, klinik va farmatsevtik terminologiyalarga bo‘linadi. Tibbiy atamalarning soni tibbiy-biologik bilimlar rivojlangan sayin oshib borishi, ularning terminologiya doirasida bir ma’noli bo‘lishi hamda polisemiya, omonimiya, sinonimiya kabilar tibbiy terminologiyada ham kuzatilishi e’tirof etilgan [7, 147]. Oftalmologiya terminologiyasi tibbiy terminologiyaning tarmoq quyi tizimi bo‘lishiga qaramay, u yuqoridagi uchala makrobo‘limni, ya’ni anatomik-gistologik, klinik va farmatsevtik bo‘limlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birgalikda, oftalmologik terminlar qo‘shimcha ravishda ikkita maxsus qatlamni ham birlashtiradi. Bular: instrumental-texnologik va optik korreksiya qatlami. Bundan tashqari, oftalmologik terminologiya eponimlarga (biror shaxs, joy yoki narsaning nomi biror tushunchaga, kashfiyotga yoki davrga berilishi) boyligi sababli termin va nomen chegaralarini belgilash biroz murakkabroq [9].

Terminologik birikma — ikki va undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, maxsus tushunchani ifodalovchi barqaror

nominativ birlik. Uning yaxlitlik mezoni komponentlarni erkin almashtirib yoki tushirib qoldirib bo‘lmasligidadir. Misol uchun, ochiq burchakli glaukoma birikmasida aniqlovchini olib tashlash umuman boshqa tushunchani, ya’ni terminni hosil qiladi.

Ko‘p komponentli termin esa terminologik birikmaning uch va undan ortiq to‘laqonli komponentdan tuzilgan turi hisoblanadi. Oftalmologiyada bunday birliklar salmoqli o‘rin egallaydi. Ya’ni birlamchi ochiq burchakli glaukoma (primary open-angle glaucoma), yoshga bog‘liq makula degeneratsiyasi (age-related macular degeneration), proliferativ diabetik retinopatiya (proliferative diabetic retinopathy). Komponentlar sonining ortishi tushuncha differensiatsiyasining lisoniy aksidir. Chunki har bir yangi aniqlovchi tushuncha hajmini toraytiradi va uni tizimning quyi pog‘onasiga o‘tkazadi. Ko‘p komponentli terminlar esa terminologik birikmaning uch va undan ortiq to‘laqonli komponentdan tuzilgan turi hisoblanadi.

Terminologik variant bitta tushunchani nomlovchi ikki yoki undan ortiq ifoda shaklidir. Variantlarni sinonimlardan farqlash mezoni tushunchaning yaxlitligidir. Variantlar terminologik tizimning bitta katagiga tegishli bo‘ladi, sinonimlar esa turli, garchi ular yaqin bo‘lsa-da, tushunchalarni nomlashi mumkin. Oftalmologik materiallarda variantlarning quyidagi asosiy turlari kuzatiladi: grafik-orfografik variantlar (nystagmus – nistagm), qisqartma variantlar (primary open-angle glaucoma – POAG), leksik variantlar (short-sightedness – nearsightedness – myopia, o‘zbekchada miyopiya – yaqinni ko‘rish), eponimik va deskriptiv variantlar (Shegren sindromi – quruq ko‘z sindromi). Xalqaro va milliy nomlash an’analarining to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladigan variantlar alohida guruhni tashkil etadi. Misol uchun, retinal detachment – to‘r parda ko‘chishi yoki retina ajralishi.

Yuqoridagi tahlil natijalariga asoslangan holda, quyida ishchi ta’riflar taklif etildi. Ya’ni oftalmologik terminologiya ko‘rish a’zosi anatomiyasi, fiziologiyasi, ko‘z kasalliklari, diagnostikasi, ularni davolash usullari, jarrohlik amaliyotlari, tibbiy asbob-uskunalar va optik korreksiya tushunchalarini nomlovchi terminlarning tartibga solingan sohaviy tizimidir. Bundan tashqari, oftalmologiya terminoleksikasi mazkur terminologik tizimni tashkil etuvchi konkret termin va terminologik birikmalar majmuidir. Yuqorida berilgan ikki ta’rifning o‘zaro munosabati quyidagicha: birinchisi konseptual-tizimiy kategoriyani, ikkinchisi esa moddiy-lisoniy kategoriyani belgilaydi. Bir xil terminologiya turli tillarda turli terminoleksika orqali paydo bo‘ladi, ya’ni aynan shu holat ingliz va o‘zbek tillari oftalmologik terminlarini chog‘ishtirma tadqiq etishning nazariy asosini tashkil qiladi.

Xulosa sifatida aytib o‘ta olamanki, o‘tkazilgan tahlil terminshunoslikning tayanch tushunchalari o‘rtasidagi farq uchta izchil mezon asosida belgilanishi mumkin. Ya’ni nomlanuvchi obyektning tabiati termin va nomenni ajratadi. Tavsif birligining xarakteri terminologiya va terminoleksikani ajratadi. Ifoda tuzilishi hamda variativligi esa bir so‘zli termin, terminologik birikma, ko‘p komponentli termin va terminologik variant tushunchalarini farqlashga asos bo‘ladi. Ikkinchidan, tibbiy terminologiya yunon va lotin negiziga tayanuvchi, uchta makrobo‘limdan — anatomik-gistologik, klinik va farmatsevtik bo‘limlardan tashkil topgan yirik quyi tizimdir. Oftalmologik terminologiya unda tarmoq quyi tizimi maqomiga ega hamda instrumental-texnologik va optik korreksiyani ham o‘z ichiga oladi. Uchinchidan, chog‘ishtirma tadqiqot uchun “terminologiya” va “terminoleksika” tushunchalarini qat’iy farqlash metodologik zaruratdir. Birinchisi qiyoslashning konseptual asosini, ikkinchisi esa qiyoslanuvchi lisoniy materialni belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akramova Z. Sh. va boshq. *Lotin tili va tibbiy terminologiya: o‘quv qo‘llanma.* – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi, 2023. – Manba
2. Dadaboyev H. *O‘zbek terminologiyasi: o‘quv qo‘llanma.* – Toshkent, 2019. – Manba
3. Felber H. *Terminology Manual.* – Paris: UNESCO, Infoterm, 1984. – Source
4. Hasanova N. X. O‘zbek tilida terminologiya va leksik o‘zgarishlar // *Modern Education and Development.* – 2025. – Vol. 25, № 4. – B. 424–430. – Manba
5. Irisqulov M. *Tilshunoslikka kirish.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – Manba
6. Jóskowska K., Grabarczyk Z. Greek and Latin in Medical Terminology // *Folia Medica Copernicana.* – 2013. – Vol. 1, No. 2. – P. 41–52. – Source
7. Mamadaliyeva M. U. Tibbiy terminlarning lingvistik xususiyati // *Journal of Universal Science Research.* – 2025. – Vol. 3, № 4. – B. 147–150. – Manba
8. Temmerman R. Questioning the Univocity Ideal: The Difference between Socio-Cognitive Terminology and Traditional Terminology // *HERMES – Journal of Language and Communication in Business.* – 1997. – No. 18. – P. 51–90. – Source
9. Yale S. et al. How to Classify, Teach, and Learn Ophthalmic Eponyms // *Cureus.* – 2021. – Vol. 13, No. 10. – Article e18849. – Source
10. Бобырева Н. Н. Термины, номены и прагматонимы в специальном языке спорта (на материале эпонимических единиц) // *Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология.* – 2021. – Т. 13, вып. 3. – С. 5–11. – Источник
11. Гринев С. В. Сопоставительное терминоведение: современное состояние // *Вестник МГПУ. Серия «Филология. Теория языка. Языковое образование».* – 2016. – С. 68–75. – Источник
12. Гринев-Гриневич С. В. *Терминоведение: учебное пособие для студентов высших учебных заведений.* – Москва: Академия, 2008. – Источник
13. Лейчик В. М. *Терминоведение: предмет, методы, структура.* – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – Источник
14. Суперанская А. В., Подольская Н. В., Васильева Н. В. *Общая терминология: вопросы теории.* – Москва: Наука, 1989. – Источник